

YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA BOSHQARUV KADRLAR TIZIMINI MODERNIZATSİYALASH

Fan va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

R.D.Xalimmetova

Boshlang'ich ta'lif 1-kurs talabasi

Adilova Saida, Qoryog'dieva Munisa

Annotatsiya: O'zbekistonda kadrlar tayyorlash siyosati, milliy dasturning tarkibiy qismi sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ushbu ilmiy-nazariy, ya'ni ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini tadqiq qilish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, yangi avlod kadrlarini tayyorlash siyosatini amalga oshirish natijasida oliy ta'lif tizimi va uni isloh qilish, mamlakatda mehnat bozorining o'ziga xos talablarni yuzaga chiqaradi.

Annotatsiya: V Uzbekistane politika podgotovki kadrov vozvedena v rang gosudarstvennoy politiki kak neot'emlemaya chast natsionalnoy programmy. Issledovanie etix nauchno-teoreticheskix, to yest sotsialno-politicheskix, pravovyx, ekonomicheskix i duxovnyx aspektov yavlyaetsya odnoy iz samykh aktualnyx problem sovremennosti. Potomu chto v rezultate realizatsii politiki podgotovki kadrov novogo pokoleniya sistema vyshego obrazovaniya i yee reformirovanie pred'yavyat opredelennyye trebovaniya k rynku truda v strane.

Abstract: In Uzbekistan, the policy of personnel training has been elevated to the rank of state policy as an integral part of the national program. The study of these scientific and theoretical, that is, socio-political, legal, economic and spiritual aspects is one of the most pressing problems of our time. Because as a result of the implementation of the policy of training new generation personnel, the system of higher education and its reform will make certain demands on the labor market in the country.

Kalit so'zlar: Ta'lif, tarbiya, ta'lif sifati, ta'lif standarti, demokratiya, ma'rifat, ma'naviyat, rivojlanish, integratsiya, ta'lif muassasi, soha, kasb-hunar, mutaxassislik, barkamol avlod.

Klyuchevыe slova: Obrazovanie, vospitanie, kachestvo obrazovaniya, obrazovatelnye standarty, demokratiya, prosveschenie, duxovnost, razvitiye, integratsiya, uchebnoe zavedenie, sfera, professiya, spesializatsiya, zreloe pokolenie.

Key words: Education, upbringing, quality of education, educational standards, democracy, enlightenment, spirituality, development, integration, educational institution, sphere, profession, specialization, mature generation.

Modernizatsiya sistemy upravleniya kadrov v strategii novogo Uzbekistana

Universitet nauki i texnologiy, st. prepodavatel Xalimmetova Roxatoy Davlatbaevna, st-ty MNO Adilova Saida, Karyagdieva Munisa.

Modernization of the personnel management system in the strategy of the new Uzbekistan

University of Science and Technology, senior teacher Khalimmetova Rokhatoy, students Adilova Said, Karyagdieva Munisa.

Barcha rivojlangan demokratik, ma'rifatlashgan mamlakatlarning taraqqiyot ildizlariga chuqur e'tibor beriladigan bo'lsa, uning bir tomoni har tomonlama barkamol kadrlarga borib taqaladi. Ular qaysi sohada bo'lmasin, mamlakat iqtisodiyoti va ma'naviyatini ko'tarishning asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan.

Mamlakatning jahondagi nufuzi uning iqtisodiy va intellektual salohiyati, dunyo sivilizatsiyasi, fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, ayni vaqtida, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga nechog'liq amal qilishi, xalqning turmush darajasi bilan belgilanadi. Har qanday millat, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatining ikkita muhim ustuni bo'lib, ulardan biri iqtisodiyot bo'lsa, ikkinchisi ma'naviyatdir. Ular bir-biriga chambarchas bog'liq, biri ikkinchisiz mavjud bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas. Ayni paytda, ma'naviyat nisbiy mustaqil xarakterga ham ega. Bu hol jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotiga faol ta'sir qila olish imkoniyatida yaqqol ko'rindi. Mana shularni nazarda tutib, iqtisodiyot va ma'naviyatsiz taraqqiyot yo'q deyish mumkin.

O'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lini belgilab olgan mustaqil O'zbekistonning hazirgi va kelajagi – yoshlarning intellektual va g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy salohiyatini yuqori darajada ta'minlash bilan uzviy aloqador qilib qo'yilayotganligining boisi ham shunda. Bu fikr «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham o'z aksini topgan bo'lib, g'oyasi, maqsadi, fikrlar qamrovi teranligi bilan katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Mazkur dastur uni ro'yobga chiqarish omillari jamiyatda zamonaviy ta'limning yuksak qadriyatlarini anglab yetish hissini yuzaga keltiradi.

Ushbu qadriyatlar barkamol shaxsni shakllantirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda va bu jarayon takomillashib bormoqda. Albatta, bakalavr va magistrler orasida g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy tarbiya, birinchi navbatda, o'qitilayotgan dars davomida olib boriladi. Bu borada bevosita tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-gumanitar fanlar katta rol o'ynaydi.

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga singdirish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifasidir¹. Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 августда қабул қилинган «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги карори // Халқ сўзи, 2006 йил 26 август.

asosida tashkil etish ko‘zda tutilgan. Yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlari-mizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tahdidlarga qarshi izchil kurash olib borish lozim. Mazkur qarorga binoan O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ‘ibot markazi o‘rniga ikkita tuzilma: 1) Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi va 2) Ma’naviyat targ‘ibot markazi tashkil topdi. Bu jarayonlar esa, o‘z navbatida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishda belgilangan vazifalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish jarayoni uzoq va murakkab bo‘lib, bir tomonidan, barcha davlat tuzilmalari, tarmoq vazirliklari hamda ijtimoiy-siyosiy jamoat, ommaviy hamda nodavlat tashkilotlarning, ayniqsa, uzlusiz ta’lim tizimi institutlarining siyosiy va ma’naviy faolligini talab etsa, ikkinchidan, yagona tarbiya tizimini barpo etib, uni shakllantirishni taqozo qiladi.

Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyulda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi va unga jamoatchilik asosida Bosh vazir rais qilib belgilandi.²

Demak, yoshlar, jumladan, talaba va magistrlarning ma’naviy yuksalishi natijasida ularning o‘z kuchi, imkoniyati bilan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, demokratik, fuqarolik jamiyat qurishga bo‘lgan ishonchi kuchayadi. Ma’naviy salohiyati yuksak millat va uning yoshlari buyuk davlatni qura oladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar milliy taraqqiyotning «inson omili»ni o‘rganib, o‘zgartirib, ma’naviy yangilab boradi. Bugun ushbu haqiqat Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev kadrlar sohasidagi siyosiy va ma’rifiy ta’limoti, ta’lim-tarbiya siyosatining nazariy-amaliy falsafasiga aylandi.

Demak, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va milliy an’analarni hayotga joriy etish masalasining Asosiy qonunimizda mustahkamlab qo‘yilishi jamiyatimizni yangilashga, jahon demokratik hamjamiyati bilan integratsiyalashuvga intilayotgan mamlakatimizning yangi qiyofasi va fuqarolarimizning yangicha tafakkurini shakllantirishga xizmat qilmoqda³.

Prezident Shavkat Mirziyoev asarlaridagi kadrlar siyosati, milliy kadrlarning millat, ona Vatan uchun mas’uliyati va javobgarligini oshirish zaruriyatini quyidagi omil va yo‘nalishlar bilan bog‘lash mumkin:

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлда қабул қилинган “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ти Қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 29 июль.

³ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан хамкорлик йўли. 11-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 215 - б.

1. Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning xar tomonlama va jadal rivojlanishini, mamlakatni modernizatsialash va barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat.

2. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash chuqur o'yangan, o'zaro ma'nfaatli va amaliy ruxdagi tashqi siyosat yuritish. Milliy kadrlardan yangicha yondashuv, dunyoqarash, mustaqil tafakkurga ega bo'lishni taqozo etadi. Chunki o'zgargan yangicha hayot va kadrlar masalasiga, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy boshqaruvga «eskicha ma'muriy, buyruqbozlik uslubi» to'g'ri kelmaydi. Bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va liberallashtirish, mulk xilma-xilligining e'tirof etilishi ham aynan shu jarayon bilan bog'liq.

3. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanmoqda. Bunday sharoitda milliy kadrlarga bo'lgan mas'uliyat ortadi. Chunki yangi avlod kadrlarini tayyorlash mezoni o'zgardi. Yangi avlod kadrlari faoliyatida inson manfaati, huquq va erkinliklarini himoya qilish, unga xizmat qilish bilan aloqador yangicha boshqaruv, texnologiyalarning joriy etilishi ham alohida mas'uliyat va javobgarlikni yuzaga keltirdi.

4. Milliy kadrlar tayyorlash tizimining siyosiy maqsadlaridan kelib chiqib, yangi avlod kadrlarini tayyorlashning xalqaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Endilikda bu aloqalarni nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish lozim.

Demokratik jamiyat qurishda milliy kadrlar tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari yuzasidan quyidagi xulosaga kelindi: O'zbekiston o'z oldiga erkin, demokratik davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishni strategik maqsad qilib qo'yar ekan, bu ko'p jihatdan ijtimoiy sixadagi kadrlar masalasi bilan bog'liq bo'lib, kadrlar siyosatining huquqiy asoslarini yaratishni taqozo qiladi. Shu sababli kadrlar masalasiga doir yuritilayotgan siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari, shuning negizida yuzaga kelgan bir qator normativ yangi o'zgartirish va ko'shimchalar kiritishni talab etadi.

Umuman, demokratik jamiyatda yuqori malakali yangi avlod kadrlarini tayyorlashning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy, mantiqiy, siyosat falsafasi nuqtai nazaridan o'rganish kadrlar siyosatidagi ilmiy-nazariy bilimlarimizni boyitishga xizmat qiladi. Shu boisdan yuqori malakali yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ayniqsa, qanday kadrlar tayyorlash masalasi va siyosati bilan bog'liq. Chunki jamiyat taraqqiyoti qobiliyatli, iste'dodli kadrlar orqali yuz beradi. Har bir mamlakat milliy rivojida bevosita o'z kadrlarining bilimdonligi, tashabbusskor va tashkilotchiligi kabi fazilatlariga tayanadi. Qadimgi Sharq va G'arbda, o'rta asrlar davrida, fanlar

klassifikatsiyalanishining taraqqiyot bosqichlarida, industrial va bugungi postindustrial, axborotlashgan jamiyatlarda kadrlar masalasini to‘g‘ri hal qilish bosh masala sifatida qaralgan. Yetuk, bilimdon yangi avlod kadrlarini yetishtirish uchun ularning o‘rta va oliv o‘quv yurtlaridagi tahsiliga, rahbarlik qobiliyatini shakllantirishga e’tibor berilgan.